
TIVda birdaniga uch davlat elchilari bilan muzokaralar bo'lib o'tdi

2018 yilning 1 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida Kuvayt davlatining favqulodda va muxtor elchisi Ahmad Xolid Al-Jiyron bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu haqda TIV axborot xizmati xabar bermoqda.

Suhbat davomida madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi O'zbekiston-Kuvayt hamkorligining dolzarb masalalari [muhokama qilindi](#).

Shuningdek, 1 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida Shveysariya Konfederatsiyasining favqulodda va muxtor elchisi Olive Shav bilan uchrashuv [bo'lib o'tdi](#).

Uchrashuvda turli sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish nuqtai nazaridan ikki tomonlama munosabatlarning amaliy jihatlarini yuzasidan fikr almashildi.

Bundan tashqari, 2018 yilning 1 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida Vengriya favqulodda va muxtor elchisi Peter Santo bilan ham uchrashuv [bo'lib o'tdi](#).

Muzokaralarda O'zbekiston-Vengriya kun tartibidagi joriy va istiqbolli masalalar muhokama qilindi.

2018-06-02 12:09:47